E CONF SERIES
International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health
Hosted online from Jakarta, Indonesia
Website: econfseries.com 30th May, 2025

# GLOBALLASHUV SHAROITIDA PEDAGOGIK TRANSFORMATSIYA VA TA'LIM ISLOHOTLARI

Radjabova Ismigul Rustamovna
"Iqtisodiyot va pedagogika universiteti" nodavlat ta'lim muassasasi
"Kompyuter tizimlari" kafedrasi katta o'qituvchisi, mustaqil ilmiy izlanuvchi.
ismigulradjabova73@gmail.com +998337700440

Xidirova Iroda Abduqodir qizi
"Iqtisodiyot va pedagogika universiteti" nodavlat ta'lim muassasasi
Xorijiy tillar fakulteti "Rus tili va adabiyoti" yo'nalishi II-bosqich talabasi.

**Annotatsiya**
Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat taraqqiyoti va globallashuv sharoitida pedagogik transformatsiya hamda ta'limda ro'y berayotgan islohotlar va buning natijasida yuzaga kelyotgan ijobiy o'zgarishlar borasida so'z boradi. Bu holatning ijobiy tomonlaridan unumli foydalanish va salbiy oqibatlariga esa qarshi turli yo'llar bilan murosa qilish ko'nikmalarini shakllantirish talab etiladi. Hozirgi rivojlanib borayotgan pedagogik shart-sharoitlar yoshlarda bu sharoitlardan unumli foydalanish mas'uliyatini yuklashini tushuntirish borasida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar**. Axborotlashgan jamiyat, axborot oqimi, yangi texnologiyalar, madaniy aloqalar, ta'limda globallashuv, modernizatsiyalashuv.

# ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ РЕФОРМА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.

Раджабова Исмигуль Рустамовна
негосударственное образовательное учреждение "Экономико-педагогический университет" старший преподаватель кафедры "компьютерные системы", независимый научный сотрудник.
ismigulradjabova73@gmail.com +998337700440

**Хидирова Ирода Абдукадыровна**
негосударственное образовательное учреждение
“экономико-педагогический университет” студентка
II ступени факультета иностранных языков направления
“Русский язык и литература”.

**Аннотация**
В данной статье речь пойдет о педагогической трансформации в условиях развития информированного общества и глобализации, а также о реформах в образовании и происходящих в результате позитивных изменениях. Требуется выработать навыки эффективного использования положительных сторон ситуации и умения по-разному идти на компромисс с отрицательными последствиями. Обсуждается объяснение того, что современные развивающиеся педагогические условия возлагают на молодежь ответственность за эффективное использование этих условий.

**Ключевые слова**. Информированное общество, информационные потоки, новые технологии, культурные связи, глобализация в образовании, модернизация.

**Kirish.**
Hozirgi kunda globallashuv jarayoni ta’lim tizimlariga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yangi texnologiyalar, axborot oqimlarining tezligi va madaniy aloqalarning kuchayishi ta’lim sohasida yangi talab va imkoniyatlarni paydo qilmoqda. Ta’lim, shuningdek, globallashuv jarayoni davomida an'anaviy shakldan modernizatsiyalashuv tusiga kirgan bo‘lib, pedagogik transformatsiya va islohotlarni zaruriylashtirmoqda.

**Asosiy qism**
Globallashuv ta’lim tizimida bir qator o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Birinchidan, bilimlar va axborotlar global darajada tarqalmoqda, bu esa ta’lim standartlarini bir xil darajaga olib kelmoqda. Ikkinchidan, xalqaro tajribalarni o‘rganish imkoniyati

mavjud bo‘lib, bu o‘z navbatida, milliy ta’lim tizimini takomillashtirishga yordam bermoqda. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilib bormoqda.

Pedagogik transformatsiya -bu ta’lim jarayonlarining yangi usullar va metodlar bilan o‘zgartirilishini anglatadi. Bu jarayonning asosiy maqsadi o‘quvchilarni yanada ta’sirchan, mustaqil fikrlovchi va innovatsion qarorlar qabul qila oladigan shaxslar sifatida tarbiyalashdir. Ta’lim tizimidagi pedagogik transformatsiya bir qancha yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Interaktiv ta’lim usullari o‘quvchilarni faol ishtirok etadigan, muhokama va amaliy ishlar bilan birlashtirilgan darslar o‘tkazilishini ta’minlaydi.

Texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonida onlayn platformalar, raqamli materiallar va multimedia resurslarini keng qo‘llashni talab etadi. Taqdimot va muloqot o‘quvchilarga darslarni taqdimot shaklida yetkazish, shuningdek, ularga savollar berish va jamoaviy muhokamalar o‘tkazishda namoyon bo‘ladi.

Shaxsiylashtirilgan ta’lim har bir o‘quvchining qobiliyat va ehtiyojlariga mos keladigan individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi. Ta’lim islohotlari globallashuv sharoitida ta’lim tizimini yaxshilash, zamonaviy talablar asosida yangilash uchun muhim ahamiyatga ega. Ta’lim islohotlarining muhim jihatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ta’lim standartlarini yangilash, yangi bilimlarga asoslangan va xalqaro darajada tan olingan ta’lim standartlarini joriy etish, o‘qituvchilarni doimiy ravishda tayyorlash va ularning malakasini oshirish, yangi pedagogik metodlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashish va hokozo.

Ta’lim moliya yordamida ta’lim sohasiga investitsiyalarni oshirish va davlat tomonidan ta’limga beriladigan moliyaviy yordamni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘zbekiston va boshqa davlatlar o‘rtasida ta’lim sohasida hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish ham globallashuv sharoitida pedagogik transformatsiya va ta’lim islohotlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Xulosa

Globallashuv sharoitida pedagogik transformatsiya va ta’lim islohotlari ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va o‘zgarishlarga tayyor turish uchun zarurdir. Bu

jarayonlar ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarni hayotga tayyorlashga va ularning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu o‘zgarishlar milliy ta’lim tizimini global darajada raqobatbardosh qilishda muhim rol o‘ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rustamovna, R. I. (2025, January). BOSHLANG ‘ICH MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRISH VA TARBIYALASHDA MEDIANING O ‘RNI. In International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices (pp. 225-230).

2. Botirovich, X. S. (2024). RAQAMLI MUHITDA O ‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VA MODELLARI. Modern education and development, 11(3), 155-161.

3. Sunatov, J. R. (2023, December). TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O ‘RNI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions” (Vol. 1, No. 01).

4. Boymurotovna, X. N. (2025, March). RUS TILINI O ‘RGANISHDA SUN’IY INTELLEKT VA NEYRON TARMOQLARNING ROLI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 55-62).

5. Rustamovna, R. I. (2025, January). MAKTABGACHA TA’LIM: BOLANING KELAJAGI VA TARBIYASI UCHUN MUHIM JARAYON. In International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices (pp. 217-224).

6. Radjabova, I. R. (2024). TALABALARNI OLIY TA’LIMGA MOSLACHUVCHANLIK KOMPETENSIYASINING TARKIBIY QISMLARI VA XUSUSIYATLARI. GOLDEN BRAIN, 2(12), 165-170.

7. Rustamovna, R. I. (2024). SUBJECT: PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPING COMPETENCE OF STUDENTS'ADAPTABILITY TO HIGHER EDUCATION. IMRAS, 7(6), 155-157.